

O'QISH SAVODXONLIGI TUSHUNCHASI TAHLILI

Ergasheva Dilnoza

Chirchiq davlat pedagogika universiteti doktoranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada xalqaro baholash dasturlarining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblangan o'qish savodxonligiga doir qarashlar, o'qib-tushunish, saralash, tahlil qilish, real vaziyatlarda qo'llay olish ko'nikmalari bayon etilgan. Savodxonlik davrlar o'tishi bilan inson omilining tarqqiyoti davomida rivojlanib boruvchi jarayon sanaladi. Shuningdek, PISA tadqiqotlari va o'qish savodxonligining qamrov doirasi, mazmuni haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *PISA, PIRLS, o'qish, savodxonlik, o'qish savodxonligi, kompetensiya, axborot, tahlil, matematik savodxonlik, tabiiy fanlar savodxonligi.*

Savodxonlik jamiyat rivojlanishi, texnologik yutuqlar, kashfiyotlar natijalari o'laroq, davrlar davomida sayqallanib boradi. Shu o'rinda, savodxonlik va o'qish savodxonligi atamaları haqida qisqacha to'xtalib o'tsak. "O'qish" atamasi o'zbek tilining izohli lug'atida so'z, jumla, gap, matnlarning yozma shaklini ichda yoki og'zaki ifodalamoq² manolarini; "savodxon, savodlilik, savodxonlik esa o'qish-yozishni biladigan, xat-savodli, oddiy matnlarni o'qiy olish yoki ularni o'qish va yoza olish, og'zaki va yozma nutq malakalariga egalik, muayyan soha bo'yicha yetarli bilimga ega bo'lish"³ ko'nikmalarini izohlab keladi. Demak, bu atamalar o'qiy olish, o'z fikrini yetkazish, sohalar bo'yicha mavjud bilimga ega bo'lish kabi ma'nolar ifodalaydi.

"O'qish savodxonligi esa bir qator aqliy faoliyat va til kompetensiyalarini qamrab oladi. Jumladan, alohida olingan so'zning ma'nosini tushunishdan tortib, matnning grammatik va lingvistik qurilishini anglash hamda matndan olingan ma'noni o'zining olam haqidagi tasavvurlari bilan bog'lashni o'z ichiga oladi"⁴. "O'qish" va "o'qish savodxonligi" o'zining qamrov doirasiga ko'ra bir biridan farq qiladi. Shunchaki matnni o'qish bilan uni qabul qilish, saralash, tahlil qilish jarayonlari orasida katta farq bor. Shu nuqtai nazardan, o'qish savodxonligi kompetensiyalar ustida ham ishlaydi. O'qish savodxonligining yaxshi rivojlanishi, matnlar bilan ishlash ko'nikmasi, o'quvchilarning boshqa fanlardan ham o'zlashtirish darajasini belgilab beradi.

"PISA 2018 Turkiya ma'lumotlarida o'qish savodxonligi ballari bilan matematik savodxonlik ballari va matematik savodxonlik ballari bilan tabiiy fanlar savodxonligi ballari o'rtasidagi bog'liqlik yuqori ekanligi aniqlandi"⁵. O'qish savodxonligida matnlar ustida ishlash asosiy jarayon sanalanadi. Matn orqali uzatilgan axborotning qay darajada qabul qilinishi orqali o'quvchi bilimga ega bo'ladi. Demak, barcha fanlarning o'zlashtirilishida asosiy vosita matn (axborot). Matn bilan ishlash esa o'qish savodxonligining qay darajada o'zlashtirilgani orqali namoyon bo'ladi.

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б. 190 591


^{3 3} Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б. 416

⁴ Ismailov A., [va boshq.]. Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash. Ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo'llanma.– Toshkent: Sharq, 2019. – B. 13.

⁵ Karacaoğlu, Ö. C., & Kasap, Y. (2023). The Effect of Reading Comprehension Skills on Mathematics and Science According to PISA Data. International Journal of Educational Research Review, 8(3), 623-637. <https://doi.org/10.24331/ijere.1246885>

Bugungi kunda o'qish savodxonligini baholovchi bir nechta xalqaro tadqiqotlar mavjud bo'lib, ular qamrov doirasi va yosh xususiyatiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. O'qish savodxonligiga doir xalqaro baholash tadqiqotlari (Qarang: 1-rasm):

1-rasm



1-rasm. O'qish savodxonligi xalqaro darajada baholanuvchi tadqiqotlar.

PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) – har besh yilda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini yaxshilash maqsadida olib boriluvchi tadqiqot⁶.

O'qish savodxonligi – PISA (Programme for International Student Assessment) tadqiqotlarining uch yo'nalishidan biri hisoblanib, unga ko'ra, o'qish, matematika, tabiiy fanlar savodxonligi bo'yicha 15 yoshli o'quvchilar bilimlari baholanadi va ularning ta'lim jarayonida egallagan bilimlarini real vaziyatlarda qo'llay olish ko'nikmalari nazoratdan o'tkaziladi. Har uch yilda bir yo'nalish ustuvorlik qiladi (Qarang: 1-jadval).

1-jadval

PISA TADDIQOTLARIDA O'QISH SAVODXONLIGI YILLAR KESIMIDA IFODALANISHI

№	O'QISH SAVODXONLIGI YILLAR KESIMIDA	USTUVOR YO'NALISH	MAZMUNI
1	2000	O'qish savodxonligi	O'qish savodxonligi insonning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishishi, jamiyatda ishtirok etishlari va o'z bilim va imkoniyatlarini rivojlantirishlari uchun yozma matnlardan foydalanish, ular ustida mulohaza yuritish va tushunish demakdir ⁷
2	2009	O'qish savodxonligi	O'qish savodxonligi insonning o'z oldiga qo'ygan maqsadlari ga erishishi, jamiyatda ishtirok etishi va o'z bilim va imkoniyatlarini rivojlantirishi uchun yozma matnlardan foydalanishi, ular ustida mulohaza yuritish, ular bilan ishlashi va tushunishi demakdir ⁸ .
3	2018	O'qish	O'qish savodxonligi insonning o'z oldiga qo'ygan

⁶ Von Davier, M., & Kennedy, A., Editors (2024). PIRLS 2026 Assessment Frameworks. Boston College, TIMSS & PIRLS International Study Center 10.6017/lse.tpisc.tr2103.kb4199

⁷ Ismailov A., Ahmedov X., Karimberdiyev Q. PISA – 2018 O'qish savodxonligi qamrov doirasi. – Toshkent: Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining matbaa bo'limi, 2021. – B. 6.

⁸ Ismailov A., Ahmedov X., Karimberdiyev Q. PISA – 2018 O'qish savodxonligi qamrov doirasi. – Toshkent: Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining matbaa bo'limi, 2021.– B. 20.

		savodxonligi	maqsadlariga erishishi, jamiyatda ishtirok etishlari va o'z bilim va imkoniyatlarini rivojlantirishlari uchun matn ko'rinishidagi ma'lumotlardan foydalanish, ular ustida mulohaza yuritish, ular bilan ishlash va tushunish demakdir ⁹ .
--	--	--------------	--

Yuqoridagi jadvalda (1-jadval) o'qish savodxonligining qaysi yillarda ustuvor yo'nalish hisoblangani va mazmunida qanday yangilanishlar yuz berganligi ifodalangan. PISA tadqiqotlarida o'qish savodxonligi 2000, 2009, 2018-yillarda; 2003, 2012, 2022-yillarda matematik savodxonlik; 2006-2015-yillarda tabiiy fanlar savodxonligi ustuvor yo'nalish etib belgilangan. Shu yillar davomida yo'nalish ta'rifida ham ma'lum bir o'zgarishlar kiritilgan. Dastlabki, (2000-2009-yillar) davrlarda o'qish savodxonligida yozma matnlardan foydalanishga urg'u berilgan bo'lsa, oxirgi berilgan ta'rifda yozma matnlar o'rnida matn ko'rinishidagi ma'lumotlardan foydalanish deb izohlangan. Jumladagi yozma so'zi olib tashlangan va quyidagicha shaklda ifodalangan: "O'qish savodxonligi insonning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishishi, jamiyatda ishtirok etishlari va o'z bilim va imkoniyatlarini rivojlantirishlari uchun matn ko'rinishidagi ma'lumotlardan foydalanish, ular ustida mulohaza yuritish, ular bilan ishlash va tushunish demakdir"¹⁰.

2018-yilda o'qish savodxonligini baholashda raqamli matnlarga katta e'tibor qaratildi. Bunday matnlar bilan ishlash o'quvchidan ma'lum tayyorgarliklarni talab qilishi bilan ajralib turadi. Bosma kitoblarda ifodalangan matnlarga nisbatan raqamli matnlarda chalg'ib qolish holatlari mavjud.

"Prognozlarga ko'ra, 2019-yildan 2030-yilgacha kompyuterlar bilan o'zaro aloqada bo'lish, ijodiy fikrlash, ma'lumot va ma'lumotlarni analiz qilish hamda tashkilotdan tashqaridagi shaxslar bilan muloqot qilish kabi ko'nikmalarga talab o'sishi kutilmoqda"¹¹. Demak, ta'lim jarayonidan keyingi vaziyatlarda raqamli muhitdan xabardor, axborotlar bilan to'g'ri ishlay oladigan, saralash, tahlil qilish ko'nikmalariga ega kadrlar bozor iqtisodiyoti qoidalariga ko'ra talabga yarasha taklif berishni taqazo qiladi. Bunday prognozlar, PISA tadqiqotlarining to'g'ri savodxonlik doirasida kuzatishlar olib borayotganligini yana bir bor isbotlaydi. Ko'nikmalarining to'g'ri shakllanishi kelajak turmush darajasini ham belgilab beruvchi asosiy jarayon hisoblanadi. Ko'nikmalarining shakllanishida esa ta'lim tizimi, savodxonlik darajalari, o'quv dasturlari muhim ahamiyat kasb etadi.


Nega o'qish savodxonligiga katta e'tibor qaratish lozim? Chunki barcha axborotlar matn ko'rinishida bo'lib, o'quvchining qabul qilishidan tortib amaliyotga tatbiq etishigacha bo'lgan jarayonni qamrab oladi (Qarang: 2-rasm).

2-rasm

⁹ Ismailov A., Ahmedov X., Karimberdiyev Q. PISA – 2018 O'qish savodxonligi qamrov doirasi. – Toshkent: Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining matbaa bo'limi, 2021. – B. 21.

¹⁰ Ismailov A., Ahmedov X., Karimberdiyev Q. PISA – 2018 O'qish savodxonligi qamrov doirasi. – Toshkent: Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining matbaa bo'limi, 2021. – B. 21.

¹¹ OECD (2023), OECD Skills Outlook 2023: Skills for a Resilient Green and Digital Transition, OECD Publishing, Paris, <https://doi.org/10.1787/27452f29-en>.



2-rasm. O'qish savodxonligi asosida shakllanuvchi ko'nikmalar

Yuqoridagi rasmda (Qarang: 1-rasm) o'qish savodxonligi asosida qanday ko'nikmalar shakllanishi tasvirlangan. Demak, birinchi navbatda axborot qabul qilinadi (elektron, bosma), keyingi jarayonda o'quvchi tomonidan axborot tahlili amalga oshiriladi va mavjud axborotlar orasida saralash jarayoni amalga oshiriladi. Egallangan yangi axborot o'quvchi uchun yangi ko'nikmani shakllantiradi va uni amaliyotga tatbiq etadi.

Qaysi soha vakili bo'lishdan qat'i nazar hayotning har jabhasida matnlarga (axborot) duch kelinadi. Matnlar ustida ishlash, o'qib-tushunish, saralash, tahlil qilish ko'nikmalari asosida ular real vaziyatlarda qo'llaniladi. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, o'qish savodxonligi barcha soha uchun asos vazifasini o'taydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ismailov A., Ahmedov X., Karimberdiyev Q. PISA - 2018 O'qish savodxonligi qamrov doirasi. - Toshkent: Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining matbaa bo'limi, 2021. - 87 b.

2. Ismailov A., Norboyeva D., Ahmedov N., Manapova D., Uralova M. Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash. Ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo'llanma.- Toshkent: Sharq, 2019. - 92 b.

3. Karacaoğlu, Ö. C., & Kasap, Y. (2023). The Effect of Reading Comprehension Skills on Mathematics and Science According to PISA Data. International Journal of Educational Research Review, 8(3), 623-637. <https://doi.org/10.24331/ijere.1246885>

4. OECD (2023), OECD Skills Outlook 2023: Skills for a Resilient Green and Digital Transition, OECD Publishing, Paris, <https://doi.org/10.1787/27452f29-en>

5. Von Davier, M., & Kennedy, A., Editors (2024). PIRLS 2026 Assessment Frameworks. Boston College, TIMSS & PIRLS International Study Center 10.6017/lse.tpisc.tr2103.kb4199

6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. 5-жилд. - Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. - 591 б.

7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. 5-жилд. - Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. - 687 б.